

NISHOTIYNING “HUSN-U DIL” DOSTONI TARKIBIDAGI MUNOZARALAR TAHLILI.

Boymurodova E'tiborxon Ismoiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Nishotiyning "Husn va Dil" dostonidan o'rin olgan munozaralarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Nishotiyning “Husn-u Dil” dostoni tarkibiga mansub munozaralar bevosita doston mazmun mohiyatini to'ldirish, izohlash va asoslashga xizmat qiladigan uzviy bo'lakdir. Shuning uchun, bunday namunalarning o'qilishi va sharhiga diqqat bilan yondashmoq talab qilinadi. Maqolada munozaralar tahliliga qo'shimcha tarzda, asar qo'lyozmalari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Muhammadniyoz Nishotiy, Husn va Dil, doston, tasavvuf, tahlil, munozara janri, qo'lyozma, obraz, dostonning o'ziga xos xususiyati.

Ma'lumki, o'zbek xalqi, adabiyoti va tili tarixiga oid yodgorliklarning katta bir qismi arab yozuvida yozilgan va ko'chirilgan. Ayrimlari keyinroq shu yozuvda toshbosma usuli bilan tarqalgan. Hozirgi paytgacha biz ularni to'la yoki parchalar holida amaldagi yozuvlarga o'girib o'rganib kelamiz. Adabiy yodgorliklarni nashr qilish ishi boy tarixga ega. Sharqshunos olimlar sharofati bilan fanning manbashunoslik, matnshunoslik sohalari izchil ilmiy tizimga tushdi va taraqqiyot yo'liga kirdi. Endilikda, ayniqsa, mustaqillikdan keyin bu jabhada ham keng imkoniyatlar ochildi. Muhammad Niyoz Nishotiy merosi haqida ham shunday deyish mumkin.

Nishotiyning adabiy faoliyati XVIII asrning II yarmida kechdi. U Xorazm adabiy hayotining sermahsul vakillaridan biridir. Uning nomi va asarlari XX asrning 60-yillarida kashf etildi. Nishotiy ko'z o'ngimizda ham lirik shoir, ham dostonnavis, ham masal-munozara asarlari muallifi sifatida namoyon bo'ladi. Bizgacha Nishotiyning lirik she'rlari, “Qushlar munozarasi” asari hamda “Husnu dil” dostoni yetib kelgan.

Shoirning “Husn-u Dil” dostoni va “Qushlar munozarasi” masnaviysi O‘z R FA Sharqshunoslik instituti asosiy qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1266/I, 1997, 1198 raqamli, O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida № 156 raqamli hamda shu muzeydagi Porso Shamsiyev arxividagi 778/2 raqamli qo‘lyozmada uchraydi. Ushbu manbalarda Nishotiyning mashhur asari “Husn-u Dil” va “Qushlar munozarasi” dostonlari mavjud. Dostonning XX asr o‘rtalaridagi nashr variantlari, xususan, H.Rasul va I.Rajabov tomonidan tayyorlangan “Husn-u Dil” dostoni nashri 156 raqamli nusxa asosida A.Hayitmetov, M.Abduvohidovalarning “Qushlar munozarasi” bo‘yicha qilgan nashrlari 778/2 raqamli nusxa asosida, V.Zohidovning nashr varianti har ikkala 778/2, 1198 nusxalar bilan bog‘liq holda chop etilgan.

Nishotiyning “Husnu dil” dostoni tarkibida keltirilgan “Muddati tarixini etsam bayon, “Xatmi Dilu husndur, ey nuqtadon” baytini tahlil qilsak, asar hijriy 1192, milodiy 1778-yilda yozilganligi ma’lum bo‘ladi. Dostonning asosiy syujeti Husn (Go‘zallik) va Dil (Qalb) o‘rtasidagi munosabatlar orqali shakllanadi. Bu ikki tushuncha shunchaki allegorik obrazlar emas, balki tasavvufiy falsafaning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Husn ilohiy go‘zallik, mutlaq jamolning timsoli bo‘lib, u orqali Haqni anglashga intilish g‘oyasi ilgari suriladi. Dil esa inson qalbini, uning ma’naviy olamini aks ettiradi. Tasavvufda qalb Allohning nazargohi hisoblanib, uni poklash, ilohiy ishq bilan to‘ldirish komillikning asosiy shartidir.

“Husn-u Dil” dostoni tarkibida beshta munozara mavjud. Ularning bajarishi mo‘ljallangan badiiy-estetik vazifalar bor. Bundan tashqari ularning doston mazmuniga o‘z ta’sirini o‘tkazgan mavqeyini ham inkor etmaslik kerak. Ular “Boz va Bulbul”, “Daf va Gul”, “Nay va Shamshod”, “Kosayi Chin va Nargis”, “Binafsha va Chang” nomli beshta munozara mavjud bo‘lib, ular badiiy mukammalligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu munozaralar doston mazmuni bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, ularni “Husn-u Dil” dostonidan alohida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga har bir bobni o‘zaro bog‘lab turuvchi soqiyga murojaatni ham munozaralardan ajratib bo‘lmaydi. Adabiyotshunos Y.Is’hoqovning ta’biri bilan aytganda, “Har bir bob

oldidan lirik muqaddima tarzida berilgan soqiyga murojaat o‘quvchini o‘sha bobdagi voqea va masalalar doirasiga olib kirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, har bir lirik parchaning mohiyati unga taalluqli bo‘lgan bobning mazmuni bilan chambarchas bog‘langan. Ularni doston tekstidan uzib olib, birin-ketin qo‘yish esa sun‘iylikdan iborat”.

“Boz va Bulbul” “Husn-u Dil” dostoni tarkibiga kiruvchi ilk munozara. Ushbu munozara tasavvufiy ma’noda insonni aqlga ortiqcha baho bermaslikka, g‘ururga berilib, manmanlik, ba’zan shoshmashosharlik bilan xulosa chiqarib, insonni adashtirib qo‘yish odati borligini, shu bois Haq jamolini idrok etish uchun aqlning o‘jizlik qilishi, buning uchun ma’rifatga, bilimlarga erishish lozimligini anglatadi.

Qolgan to‘rt munozara dostonning tugallanma qismida keltirilgan. “Daf va Gul” munozarasi Husnning kanizi Mehr tomonidan “Gulzori bahor”da tashkil qilingan bazmda bo‘lib o‘tadi. Bu masalda shoir yashab ijod etgan davrda san’at ahllarining kamol topishi uchun hech qanday sharoit bo‘lmaganligiga ishora qilinadi.

“Nay va Shamshod” munozarasi Qomat uyushtirgan mehmondorchilikda ro‘y beradi. Nishotiy Nay va Shamshodning foydali tomonlarini qayd etib, ularning maqtanchoqliklarini qoralaydi va bir-birini pisand qilmaslik jamiyatda yomon ish ekanligini uqtirib o‘tadi. Shoir, birovlarni nazar-pisand qilmay, dimog‘ini ko‘tarib yuruvchilar bir kun xazon yeli bilan yakson bo‘lurlar, deb “qissadan hissa” chiqaradi. Shoir ichki dunyosi ham, tashqi ko‘rinishi ham “mehr kibi” (quyosh singari) yorug‘ kishilarni ulug‘laydi.

“Kosayi Chin va Nargis” munozarasi chiroyli badiiy ifoda bilan boshlangan. Shoir tong tasvirini “Sham‘i sahar qasri falakda yong‘oni” – deya quyoshning chiqishini chiroyli istioraviy birlik – tongning shami osmon qasrini yoritishi bilan qiyoslaydi. Shundan so‘ng, G‘amzaning Ravzayi jannatobodda mehmondorchilik qilgani tasvirlanadi. Bu masalda Nishotiy Kosa va Nargis obrazlari orqali jamiyatdagi “Naqshi hayodin asar”I bo‘lmagan nodonlarga, kecha-kunduz fikr-u hayoli “siym-u zar” (kumush, oltin) to‘plash bilan band bo‘lgan “surat eli”ga ta’na qilib, “ma’ni eli”ga xayrixohlik bildiradi.

“Binafsha va Chang” munozarasi Gisu uyushtirgan bazmda, binafshazorda bo‘lib o‘tadi. Bu masalda ham shoir Binafsha va Chang singari allegoric obrazlar orqali o‘z zamonasining nojo‘ya xatti-harakatlari ustidan kuladi. “Din yo‘lidin ish sango bezorliq” kabi misralar bilan mutaassiblarning bezoriligini ochib tashlaydi.

Yuqoridagi besh munozara dostonning umumiy yo‘nalishi bilan chambarchas bog‘lanib, yaxlit bir badiiy asarning uzviy qismlarini tashkil etgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda munozaraning har biri mustaqil bir asar hisoblanadi. Ularning har birida muqaddima, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim mavjud bo‘lgan. Muayyan qahramonlar tizimi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarga ega mustaqil va yakunlangan asarlar sifatida tahlil etilishi mumkin va kerak.

Xulosa qilib aytganda, Nishotiyning “Husn va Dil” dostonidagi munozalarning har birini ushbu janrning o‘zbek adabiyotidagi yetuk va o‘ziga xos namunalari sifatida baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Munozaralarda insonda bor bo‘lgan kibrga berilish, maqtanchoqlik, ilmsizlik, yolg‘onchilik, munofiqlik va zulmkorlik kabi bir qancha yomon xislatlar qoralanadi. Ushbu salbiy xususiyatlarni yenga olgan kishigina maqsadi sari yetishishi munozaraning bosh g‘oyasi sifatida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида Қарори // Халқ сўзи. – 2017. -14 сент.
2. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. К. 2. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967.
3. Нишотий. Хусн ва Дил. Достон. Шеърлар. / Нашрга тайёрловчилар Расулов Ҳ., Ражабов И. Мухаррир: С.Муталлибов. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадий адабиёт, 1967.
4. Abduraxmonova Olmosxon Ilhomjon qizi. “NISHOTIY MUNOZARALARINING MATNIY TAHLILI” dissertatsiyasi. Toshkent, 2021.
5. Xolova Kamola Furqat qizi. “MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSNU DIL” DOSTONI VA UNING BADIY AHAMIYATI” maqolasi.

6. Shernazarova Gulshan Abdullayevna. “Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonida tasavvufiy va ma’rifiy terminlar” maqolasi.